

BANK SEKTORIDA DAROMAD VA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF INCOME AND EXPENSES IN THE BANKING SECTOR

¹Mamatov Akmaljon
Anvarjonovich

¹“Agrobank” ATB HR departamenti boshqarma boshlig‘i.
G-mail: a.a.mamatov82@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank sektorida daromad va xarajatlar shakllanishi, ularning tarkibiy tuzilishi hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, foizsiz daromadlar bilan befoiz xarajatlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik aniqlanib, bank sektorining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tahlil natijalari asosida bank sektorining daromadliligini oshirish hamda xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article analyzes the formation of income and expenses in the banking sector of the Republic of Uzbekistan, their structural composition, and efficiency indicators based on statistical data. In particular, a correlation relationship between interest and non-interest income and expenses is identified, and the factors influencing the financial stability of the banking sector are scientifically substantiated. Based on the results of the analysis, scientific and practical recommendations aimed at increasing bank profitability and optimizing expenses are developed.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ bank sektori, foizli daromad, foizsiz daromad, bank xarajatlari, sof foyda, rentabellik, ROA, ROE, moliyaviy barqarorlik.
❖ banking sector, interest income, non-interest income, bank expenses, net profit, profitability, ROA, ROE, financial stability.

Kirish.

So‘nggi yillarda jahon moliya bozorlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar, foiz stavkalari dinamikasi, makroiqtisodiy beqarorlik omillarining kuchayishi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari bank tizimi faoliyatiga qo‘yilayotgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda ularning daromad va xarajatlar nisbatini samarali boshqarish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bank sektorining barqaror rivojlanishi faqat daromadlar hajmini oshirish bilan emas, balki xarajatlarning

maqbul darajada shakllanishi va ularning samaradorligi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilash, aktiv va passivlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida [1] bank tizimining

samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va bank faoliyatida ilg'or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish asosiy vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Shu nuqtai nazardan, bank sektorining daromad va xarajatlar samaradorligini tahlil qilish, ularning tarkibiy tuzilishi va dinamikasini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Banklar faoliyatida daromadlar asosan foizli operatsiyalar va foizsiz (komissiyaviy va operatsion) xizmatlar hisobiga shakllanadi. Biroq, so'nggi yillarda foizli resurslar qiymatining ortishi, operatsion xarajatlarning o'sishi hamda kredit risklari bilan bog'liq xarajatlarning ko'payishi bank sektorining umumiy moliyaviy natijalarini cheklab qo'yimoqda.

Ayniqsa, foizsiz daromadlar va befoiz xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning bank sektorining sof foydasi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri yetarlicha chuqur ilmiy tahlil qilinmagan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, banklar tomonidan foizsiz daromadlarni oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan operatsion va ma'muriy xarajatlar har doim ham kutilgan moliyaviy samarani bermayapti. Bu esa bank sektorida xarajatlarni samarali boshqarish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini taqozo etadi.

Shu bilan birga, kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash uchun shakllantirilayotgan zaxiralar hajmining ortib borishi bank sektorining sof foyda ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holat aktivlar sifati, risklarni boshqarish va daromadlilik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi aynan shu masalalar bilan izohlanib, unda O'zbekiston bank sektorida daromad va xarajatlar samaradorligini kompleks tahlil qilish, ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash hamda xarajatlarni optimallashtirish orqali bank faoliyati

samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, jumladan, daromad va xarajatlar nisbatini maqbul boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlar orasida bank daromadlilik va xarajatlar samaradorligini tadqiq qilishga salmoqli hissa qo'shgan mualliflardan biri F. Mishkin hisoblanadi [2]. Uning ishlarida bank faoliyatida moliyaviy barqarorlikka erishish, aktivlar sifati va risklarni boshqarish masalalari daromadlilikka bevosita ta'sir etuvchi omillar sifatida ko'rsatiladi. F. Mishkin bank xarajatlarining o'sishi aktivlardan olinayotgan daromad o'sishi bilan mutanosib bo'lmagan sharoitda bank sektori barqarorligining zaiflashishini ta'kidlaydi.

O.I. Lavrushin ning ilmiy ishlarida bank menejmenti va moliyaviy natijalarni boshqarish masalalari atroflicha o'rganilgan [3]. Muallif bank daromadlarini shakllantirishda foizli operatsiyalar ustuvor o'rin tutishiga qaramasdan, operatsion xarajatlarning samarali nazorati bank rentabelligining asosiy sharti ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Lavrushinning fikricha, bank xarajatlarini optimallashtirishsiz foizli marjani barqaror saqlash imkoniyati cheklangan bo'ladi.

G.N. Beloglazova bank faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy koeffitsiyentlar, xususan aktivlar rentabelligi (ROA) va xususiy kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlarining muhim ahamiyatini ta'kidlaydi [4]. U bank xarajatlarining tarkibiy tahlili daromad manbalarining sifatini baholashda muhim metodologik asos ekanligini ko'rsatib beradi.

N.P. Belotelova ning tadqiqotlarida bank xarajatlari o'sish sur'atining daromadlar o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi bank sektorining moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi asosiy omil sifatida baholangan [5]. Muallif bank xarajatlarini faqat kamaytirish emas, balki ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhimligini ta'kidlaydi.

Foizsiz daromadlar va operasion xarajatlarning bank moliyaviy natijalariga ta'siri masalalari xalqaro tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Jumladan, bank xizmatlarini raqamlashtirish va komissiyaviy daromadlarni rivojlantirish banklar daromad manbalarini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish imkonini berishi ta'kidlanadi. Ayrim tadqiqotlarda foizsiz daromadlar ulushining o'sishi bank xarajatlarining ma'lum darajada oshishi bilan bog'liq ekanligi qayd etiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham bank sektorining daromadlilik va xarajatlar samaradorligi masalalari tadqiq qilingan. A.A. Omonovning ta'kidlashicha, bank resurslarini samarali boshqarish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda foizsiz operatsiyalar ulushini oshirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu yondashuvlar bank faoliyatida risklarni kamaytirishga, daromad oqimlarining barqarorligini ta'minlashga, shuningdek, banklarning bozor sharoitlaridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [6]. Shuningdek, Sh.Z. Abdullayeva hamda boshqa mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida daromad va xarajatlar nisbatini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanadi. Mazkur jarayon banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda raqobat muhitida barqaror faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi [7].

Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy adabiyotlarda bank daromadlari va xarajatlari ko'p hollarda umumiy moliyaviy natijalar nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, foizsiz daromadlar bilan befoiz xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa, milliy bank tizimi misolida ushbu bog'liqlikni korrelyasion tahlil asosida baholash masalasi ilmiy jihatdan kam o'rganilgan.

Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, unda O'zbekiston bank sektorida daromad va xarajatlar samaradorligini kompleks tahlil qilish, ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tizimli, dinamik va qiyosiy tahlil, shuningdek, korrelyasion tahlil hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari, bank sektorining jamlanma hisobotlari va ochiq manbalar asos qilib olindi. Bank sektorida daromad va xarajatlar samaradorligini baholashda sof foyda, foizli marja, ROA va ROE kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblanib tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi bank sektorida daromad va xarajatlar dinamikasini tahlil qilish bank faoliyati samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2020–2025-yillar davomida bank sektorining moliyaviy natijalari umumiy hisobda nominal o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, ushbu o'sish xarajatlar dinamikasi bilan to'liq muvozanatlashmagan.

Quyida bank sektori daromad va xarajatlarning umumlashtirilgan ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari, mlrd. so'm*

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.
Foizli daromadlar	86 679	111 866
Foizli xarajatlar	57 683	77 675
Foizli marja	28 996	34 192
Foizsiz daromad	42 054	55 120
Foizsiz xarajat	13 273	22 619
Operasion xarajat	19 563	23 715
Foizsiz daromad (zarar)	9 218	8 785
Kredit bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni baholash	18 413	25 939
Boshqa aktivlar bo'yicha zararlarni baholash	4 645	7 383
Soliqqacha sof foyda	15 155	9 655
Foyda solig'i	2 775	2 690
Foyda bo'yicha tuzatishlar	0,0	1,4
Sof foyda (zarar)	12 380	6 966
Bank sektori daromadlilik ko'rsatkichlari		
Sof foyda / jami aktivlar (ROA)	2,6	1,4
Sof foyda / jami o'z kapitali (ROE)	14,2	6,6
Sof foizli daromad / jami aktivlar	4,4	4,4
Kreditdan olingan sof foizli daromad / jami kredit qo'yilmalari	6,2	6,4
Sof foizli daromad / jami majburiyatlar	5,2	5,2
Sof foizli marja / jami aktivlar	4,9	4,9

*<https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/2122799>

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, tahlil qilinayotgan davrda bank tizimi foizli daromadlarining barqaror o'sishi kuzatilgan. Biroq, foizli xarajatlar o'sish sur'ati foizli daromadlar o'sish sur'atidan yuqori bo'lgani natijasida foizli marjaning samaradorligi cheklangan. Bu holat banklar tomonidan resurslarni jalb qilish qiymatining oshib borayotgani bilan izohlanadi.


Foizsiz daromadlar ham nominal jihatdan o'sgan bo'lsa-da, operasion va ma'muriy xarajatlar bilan bog'liq befoiz xarajatlarning jadal ortishi sof foydaga bosim o'tkazgan. Natijada, bank sektorining umumiy sof foyda ko'rsatkichi o'sish o'rniga pasayish tendensiyasini namoyon etgan.

1-rasm ma'lumotlari 2020–2025-yillar davomida O'zbekiston bank sektorida xarajatlar daromadlilik tarkibida muhim sifat o'zgarishlari yuz berganini ko'rsatadi. Xususan, foiz xarajatlari daromadlilik 2022-yildan so'ng

barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu resurslarni jalb qilish qiymatining ortishi hamda kredit portfeli daromadlilikining ushbu o'sishni to'liq qoplab bera olmayotgani bilan izohlanadi.

Ayni paytda, befoiz xarajatlari (foizsiz va operasion xarajatlar yig'indisi) daromadlilik muttasil o'sib borib, 2025-yilga kelib eng yuqori darajaga yetgan. Bu holat bank xizmatlari, komissiyaviy operasiyalar va raqamli mahsulotlardan olinayotgan daromadlar ulushi oshib borayotganini anglatadi.

Jami xarajatlar daromadlilik tahlil qilinayotgan davrda nisbatan past darajada shakllangan bo'lib, 2023–2024-yillarda eng quyi nuqtaga tushgan. Faqat 2025-yilda uning qisman tiklanishi bank sektorining xarajatlarni optimallashtirishga o'ta boshlaganini ko'rsatadi.




1-rasm. O'zbekiston bank sektori xarajatlari turlari daromadligi¹

Shuningdek, kredit faoliyati bilan bog'liq ehtimoliy zararlar bo'yicha xarajatlari daromadligining pasayishi kredit risklari bank moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari bank sektorining daromadlilik modeli foizli

operatsiyalardan foizsiz operatsiyalarga bosqichma-bosqich siljib borayotganini ko'rsatadi hamda xarajatlarni samarali boshqarish strategik ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi bank sektorida ehtimoliy zarar baholanganidan keyin jami sof foizli daromad, mlrd. so'mda²

Ushbu rasmda 2020-2025-yillar davomida O'zbekiston bank sektorida sof foizli daromad dinamikasi aks ettirilgan bo'lib, u bank faoliyati daromadligida yuz bergan

keskin o'zgarishlarni yaqqol namoyon qiladi. Tahlil qilinayotgan davrning boshida, xususan 2020-yilda sof foizli daromad yuqori darajada shakllangan bo'lib, bu bank sektorining

¹Manba: www.cbu.uz (2025 yil yarim yillik natijasi asosida hisoblangan)

²Manba: www.cbu.uz

an'anaviy foizli operatsiyalardan barqaror daromad olayotganini ko'rsatadi.

2021-yilda sof foizli daromadning sezilarli kamayishi kuzatilgan. Bu holat pandemiya oqibatlari, iqtisodiy faollikning pasayishi hamda kredit portfeli sifatining yomonlashuvi natijasida kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash uchun shakllantirilgan zaxiralar hajmining ortishi bilan izohlanadi. Natijada, foizli daromadlar saqlanib qolgan bo'lsa-da, sof foizli daromad ko'rsatkichi pasaygan.

2022-2023-yillarda sof foizli daromadning qayta tiklanishi kuzatilib, ushbu davrda bank sektorining foizli marjasi nisbatan barqarorlashgan. Bu holat iqtisodiy faollikning tiklanishi, kredit portfeli hajmining o'sishi hamda aktivlar sifatining ma'lum darajada yaxshilanishi bilan bog'liq. Biroq, ushbu ijobiy tendensiya uzoq muddatli bo'lmagan.


2024-yildan boshlab sof foizli daromadda keskin pasayish kuzatilib, 2025-yilga kelib deyarli nol darajaga tushgan. Bu holat kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash uchun shakllantirilgan zaxiralar hajmining jadal ortishi, foizli xarajatlar o'sishining foizli daromadlar o'sishidan yuqori bo'lishi hamda aktivlar daromadliligining pasayishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, kredit risklarining kuchayishi bank foizli faoliyati samaradorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, sof foizli daromad dinamikasi bank sektorining foizli

operatsiyalarga yuqori darajada bog'liq ekanini va ushbu segmentda risklarning oshishi bank moliyaviy barqarorligi uchun sezilarli xatar tug'dirishini ko'rsatadi. Xususan, foizli daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, kredit risklarini samarali boshqarish hamda foizsiz daromadlarni barqaror manbaga aylantirish bank sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

3-rasmda O'zbekiston bank sektorida foizsiz daromadlar hamda befoiz xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyasion tahlil asosida aks ettirilgan. Grafik natijalari mazkur ikki ko'rsatkich o'rtasida juda kuchli musbat bog'liqlik mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,9838$ ni tashkil etgan bo'lib, bu foizsiz daromadlar o'zgarishining qariyb 98 foizi befoiz xarajatlar dinamikasi bilan izohlanishini anglatadi.

Regressiya tenglamasi $y = 1,2726x - 1558,7$ ko'rinishiga ega bo'lib, uning iqtisodiy mazmuni shuni anglatadiki, bank sektorda befoiz xarajatlar 1 mlrd. so'mga oshganda, foizsiz daromad o'rtacha 1,27 mlrd. so'mga ortib boradi. Bu holat nobank xizmatlari, komissiyaviy operatsiyalar, raqamli bank mahsulotlari va infratuzilmaviy xarajatlarning daromad keltiruvchi xususiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.



3-rasm. Foizsiz daromadlarning befoiz xarajatlarga korrelyasion bog'lanishi³

³Manba: www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Shu bilan birga, regressiya tenglamasidagi manfiy erkin had ($-1558,7$) foizsiz daromadlarni shakllantirish uchun ma'lum boshlang'ich xarajatlar zarurligini ko'rsatadi. YA'ni, befoiz xarajatlar ma'lum minimal darajaga yetmas ekan, foizsiz daromadlar to'liq shakllanmaydi. Bu holat bank sektorda foizsiz daromadlarni oshirish strategiyasi qisqa muddatli emas, balki o'rta va uzoq muddatli investision yondashuvni talab etishini anglatadi.

Umuman olganda, mazkur tahlil natijalari bank sektorining daromadlilik modelida foizsiz operasiyalarning ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Biroq, befoiz xarajatlarning o'sishi avtomatik ravishda sof foydaning oshishiga olib kelmasligini ham inobatga olish lozim. Shu sababli, banklar tomonidan foizsiz daromadlarni oshirish jarayonida xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini doimiy baholab borish, investision qarorlarni aniq hisob-kitoblar asosida qabul qilish zarur.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasi bank sektorida daromad va xarajatlar samaradorligini ta'minlash masalasi banklarning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi hamda aktiv operasiyalarni uzluksiz moliyalashtirish imkoniyatlarini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xususan, 2020–2025-yillar davomida bank sektorining daromadlari hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, xarajatlar, ayniqsa foizli, operasion va risklar bilan bog'liq xarajatlarning jadal ortishi mazkur o'sishning iqtisodiy samaradorligini cheklab qo'ygan. Bu holat bank faoliyatida daromadlarning absolyut o'sishidan ko'ra, ularning qanday xarajatlar hisobiga shakllanayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini hamda daromad va xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bank sektorining sof foyda ko'rsatkichlari asosan kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash uchun shakllantirilayotgan zaxiralar hajmining ortishi hamda operasion xarajatlarning jadal o'sishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, 2024–2025-yillarda sof foizli daromadning keskin pasayishi bank faoliyatida foizli operasiyalarga yuqori darajada bog'liqlik saqlanib qolayotganini va risklarning kuchayishi moliyaviy barqarorlikka jiddiy tahdid tug'dirayotganini namoyon etdi.

Shu bilan birga, foizsiz daromadlar bilan befoiz xarajatlar o'rtasidagi korrelyasion tahlil natijalari mazkur ikki ko'rsatkich o'rtasida juda kuchli musbat bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu bank xizmatlari, komissiyaviy operasiyalar va raqamli mahsulotlarga yo'naltirilgan xarajatlar iqtisodiy jihatdan asoslangan holda amalga oshirilganda, foizsiz daromadlarni oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, befoiz xarajatlarning ortishi avtomatik ravishda sof foydaning o'sishiga olib kelmasligi tahlil natijalarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Ushbu xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, bank sektorida foizli resurslar qiymatini pasaytirishga qaratilgan depozit siyosati va aktiv-passivlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu foizli marjani barqarorlashtirish orqali sof foizli daromadni saqlab qolish imkonini beradi.

Ikkinchidan, foizsiz daromadlarni oshirish strategiyasi qisqa muddatli emas, balki o'rta va uzoq muddatli investision yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda raqamli bank xizmatlari, komissiyaviy mahsulotlar va nobank operasiyalar rivojlantirilishi bilan bir qatorda, ushbu yo'nalishdagi xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi muntazam baholab borilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, operasion va ma'muriy xarajatlarni optimallashtirish, biznes-

jarayonlarni raqamlashtirish orqali xarajatlar samaradorligini oshirish bank sektorining umumiy rentabelligini yaxshilashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish, aktivlar sifati ustidan monitoringni kuchaytirish hamda ehtimoliy zararlarni oldindan baholash mexanizmlarini rivojlantirish sof foydaning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, bank sektorining daromad va xarajatlar samaradorligini oshirish faqat daromad manbalarini kengaytirish bilan cheklanmasdan, xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi va ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini kompleks boshqarishni talab etadi. Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025- yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Мишкин Ф. С. Экономика денег, банковского дела и финансовых рынков. — М.: Вильямс, 2006. — С. 147-189.
3. Лаврушин О. И. Банковский менеджмент: учебник. — М.: Кнорус, 2011. — 560 стр.
4. Белоглазова Г. Н. Банковское дело: учебник. — М.: Финансы и статистика, 2014. — 591 стр.
5. Белотелова Н. П. Деньги. Кредит. Банки: учебник. — М.: Дашков и К°, 2016. — 482 с. 6.
6. Omonov A.A., Raximov S. Tijorat banklari depozit siyosatining shakllanish va rivojlanish masalalari // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. — 2018. — № 6.
7. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. — Toshkent.: Moliya, 2000.-211-b.